



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

*Elektron nashr. 269 sahifa.
2025-yil dekabr*



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABORATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdam o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbonov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafoyev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI.....	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI.....	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumo'min o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turo pova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижонова	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	
«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛИЕНТСКОГО ОПЫТА В БАНКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»	173
Каримов Диёрбек Дилшод угли, Уснатдинов Миратдин Саламатдинович, Юлдашев Жамшид Абрарович	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYANING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	182
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	188
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI.....	193
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	198
Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li, Shaymanova Nigora Yusupovna	
TIJORAT BANKLARINING BARQARORLIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	203
To'rayeva O'g'iloy G'iyosovna, Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li, Mirzayev Mirza Abdullayevich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПОТОКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	208
Мисс София Ёдмыанг, Рахматова Наргизахон Аъзамхонова	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	214
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	



ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СБЕРЕЖЕНИЯМИ И ИНВЕСТИЦИЯМИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕЙСЯ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	220
Абдумажидов Шохжохон Шухратович. Нозимов Эльдор Анварович	
ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ “ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ” В БАНКОВСКУЮ СФЕРУ	226
Тохинова Азиза Олимжоновна, Ишонкулова Феруза Асатовна	
MOLIYAVIY HISOBOTLAR ISHONCHLILIGINI SHAKLLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI MEKANIZMLARINING AHAMIYATI	231
Jo'rayeva Risolat Shuxrat qizi, Mardonov Shaxriyor Xolmirzo o'g'li	
РАЗРАБОТКА ДОЛГОСРОЧНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ НА ОСНОВЕ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	235
Юлдошев Бобур Бахромович, Маратова Гульшад Женгисовна, Саъдий Шукрилло Асатилло угли	
IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALARDA EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI HISOBI	246
Oltmishov Doniyor, Ermaxammadov Ro'zimurod, Qo'shbekova Shahnoza, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT BO'YICHA HISOBLASHUV MUOMALALARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI	249
Uralova Gavhar, Ibodova Madina, Alimov Abbos, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
MOLIYAVIY SIYOSATNING MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGIGA TA'SIRI VLIYANIE FINANSOVOY POLITIKI NA STABIL'NOST' NatsIONAL'NOY EKONOMIKI THE IMPACT OF FINANCIAL POLICY ON THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY.....	253
Ismatilloev Muhridin Asliddin o'g'li, Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR BOZORIDA AI ASOSIDAGI INNOVATSIYALARNING INVESTITSION OQIMLARGA TA'SIRI	259
Istamov Bekzodbek Bahriddinovich, Buranova Jazira Ergash kizi	
EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	264
Urinboyev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	



EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT

Urinboyev Bexruz Zoir o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
E-mail: urinbayevbekhruz@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Misirov Asliddin Mamasobirovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Buxgalteriya hisobi kafedrasida assistenti
E-mail: misirovasliddin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda eksport va import operatsiyalarini tahlil qilish hamda auditdan o'tkazishning zamonaviy usullari ko'rib chiqiladi. Hamda, xalqaro savdo aylanmasini optimallashtirish, bojxona to'lovlari auditi va risklarni boshqarish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jahon, subsidiya, statistika, import, eksport, samarador, iqtisodiy faoliyat, mezon, xomashyo, saldo, digital, texnologiya.

Abstract: This article examines modern methods of analysis and audit of export and import operations in the development of foreign economic activity. Also, issues of optimization of international trade turnover, audit of customs fees and risk management were analyzed in depth.

Key words: World, subsidy, statistics, import, export, efficient, economic activity, criteria, raw materials, balance, digital, technology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные методы анализа и аудита экспортных и импортных операций в развитии внешнеэкономической деятельности. В целом проведен углубленный анализ вопросов оптимизации товарооборота международной торговли, аудита таможенных пошлин и управления рисками.

Ключевые слова: Мир, субсидии, статистика, импорт, экспорт, эффективность, экономическая деятельность, критерии, сырье, сальдо, цифровой, технология.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti sharoitida har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi uning tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida 2024-yil 1-yanvarga qadar Yevropa, Turkiya, Marokash, Shimoliy va Janubiy Amerika, Arab mamlakatlari, Koreya Respublikasi hamda Yaponiya davlatlariga gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini eksport qilishda tashish xarajatlarining 70 foizini kompensatsiya qilish uchun subsidiyalar taqdim etilishi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni doirasida eksport hajmini 2026-yilga kelib 30 milliard AQSH dollariga yetkazish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi kunda jahon bozoridagi beqarorlik, logistika zanjirlarining uzilishi hamda proteksionizm siyosatining kuchayishi eksport-import operatsiyalarini nafaqat samarali boshqarishni, balki ularni chuqur tahlil qilish va auditdan o'tkazishni ham taqozo etmoqda. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakunlari bo'yicha respublikaning tashqi savdo aylanmasi 62,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 23,9 foizga o'sgan. Biroq import hajmining (37,1 mlrd AQSH dollari) eksport hajmiga (25,5 mlrd AQSH dollari) nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi tashqi savdo balansidagi defitsitni kamaytirish maqsadida eksport-import operatsiyalarini optimallashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport va import operatsiyalarini takomillashtirish, ularni tahlil qilish va auditdan o'tkazish masalalari iqtisodiyot fanining doimiy o'rganiladigan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bo'limda xorijiy va mahalliy olimlarning mazkur muammo bo'yicha bildirgan ilmiy qarashlari tahlil qilinadi.

Xalqaro miqyosda tashqi savdo auditi va tahlili ko'proq global yetkazib berish zanjirlari hamda risklarni boshqarish nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Nobel mukofoti sovrindori Pol Krugman o'zining "Xalqaro iqtisodiyot: nazariya va siyosat" asarida eksport salohiyatini oshirishda miqyos iqtisodiyoti (economies of scale) tushunchasini ilgari suradi. Uning fikricha, eksport operatsiyalarini tahlil qilish jarayonida ichki bozor hajmi bilan tashqi bozordagi raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlikni audit qilish korxonalar strategiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Audit sohasidagi nufuzli olim Alvin A. Arens o'zining "Auditing and Assurance Services" asarida tashqi iqtisodiy faoliyat auditini maxsus maqsadli audit sifatida tasniflaydi. U import operatsiyalarida bojxona deklaratsiyalarining moliyaviy hisobotlarga muvofiqligini tekshirishda substansiv testlar (substantive tests) o'tkazish muhimligini asoslab bergan.

Taniqli iqtisodchi olim Maykl Porterning "Raqobatbardoshlik strategiyasi" (Competitive Strategy) asarida import qilinadigan xomashyoning sifat auditini o'tkazish yakuniy eksport mahsulotining tannarxi va sifatiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Porteriga ko'ra, import zanjiridagi samaradorlik eksport ustunligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari hamda valyuta siyosatidan kelib chiqqan holda, mahalliy tadqiqotchilar tashqi iqtisodiy faoliyat auditini o'ziga xos tarzda talqin etadilar. Jumladan, G'.A. Ibragimov va U.K. Yakubovlarning "Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili" nomli o'quv qo'llanmasida eksport va import operatsiyalarini takomillashtirishda audit va tahlilning tutgan o'rni alohida yoritib berilgan. Mualliflar tashqi savdo operatsiyalarini shunchaki tovar ayirboshlash jarayoni emas, balki korxonaning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi murakkab iqtisodiy tizim sifatida baholaydilar.

Ularning fikricha, eksport operatsiyalarini takomillashtirishning asosiy mezonini sotilgan mahsulot uchun valyuta tushumlarining korxonalar hisob raqamiga to'liq va belgilangan muddatlarda kelib tushishini ta'minlashdan iborat. Bu jarayonda auditning vazifasi faqat hujjatlarni tekshirish bilan cheklanmay, balki valyuta tushumining kafolatlanganligini tahlil qilish orqali debitorlik qarzdorligi xavfini kamaytirishdan iborat bo'lishi lozim.

Mualliflar import operatsiyalari tahliliga ham alohida e'tibor qaratib, chetdan keltirilayotgan tovar va xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini import o'rnini bosish tamoyili asosida o'rganish zarurligini ta'kidlaydilar. Ya'ni audit jarayonida import qilinayotgan xomashyo yoki texnologiyaning yakuniy mahsulot tannarxini pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga qo'shayotgan hissa baholanishi shart. Agar import qilinayotgan resurslar ichki bozordagi muqobililariga nisbatan qimmatroq bo'lsa yoki ishlab chiqarish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasa, bunday operatsiyalarni takomillashtirish yoki qayta ko'rib chiqish zarurligi qayd etiladi.

O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar asosan bozor mexanizmlari va global qiymat zanjirlarini tahlil qilishga e'tibor qaratgan bo'lsa, mahalliy olimlar milliy qonunchilik, bojxona rasmiylashtiruv va valyuta nazorati masalalariga ko'proq urg'u berishgan. Shu bilan birga, raqamli audit (Digital Audit) hamda sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida eksport-import operatsiyalarini tahlil qilish va audit jarayonlarini avtomatlashtirish masalalari hali ham qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot jarayonida eksport va import operatsiyalarini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy asoslarini o'rganish maqsadida ikki asosiy metodik yondashuvdan keng foydalanildi.

Birinchi metodik yondashuv tizimli iqtisodiy tahlil va qiyosiy-mantiqiy yondashuvdan iborat bo'ldi. Tadqiqot davomida tashqi savdo aylanmasining tarkibi, mahsulotlar nomenklaturasi, eksport va import hajmlarining o'sish sur'atlari, valyuta tushumlari, bojxona to'lovlari dinamikasi, logistika xarajatlarining mahsulot tannarxidagi ulushi, tashqi bozorlardagi narxlar kon'yunkturasi, Inkoterms qoidalarining moliyaviy natijalarga ta'siri, valyuta kurslarining o'zgarishi bilan bog'liq risklar, eksportyor korxonalarining moliyaviy barqarorligi hamda import o'rnini bosuvchi tovarlar tahlil qilindi. Ushbu jarayonda mantiqiy fikrlash, taqqoslash, ilmiy mushohada va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Mazkur metod asosida O'zbekiston Respublikasining so'nggi besh yillik tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari o'zaro solishtirilib, kompleks tizimli tahlil amalga oshirildi.

Ikkinchi metodik yondashuv riskka yo'naltirilgan audit va ekonometrik modellashtirish usullariga asoslandi. Maqolani tayyorlash jarayonida bojxona auditining samaradorligini oshirish maqsadida risklarni boshqarish tizimi, TIF TN (Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi) kodlarini to'g'ri aniqlash ustidan nazorat, eksport shartnomalarining huquqiy va iqtisodiy ekspertizasi, debitorlik va kreditorlik qarzdorlik muddatlarini baholash, valyuta nazorati talablariga rioya etilishi, auditorlik tanlamasi, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga



muvofigligi kabi jihatlar o'rganildi. Shuningdek, matematik-statistik modellashtirish va prognozlash usullaridan foydalanildi.

Eksport hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, valyuta kurslari, jahon bozoridagi narxlar va transport xarajatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda korrelyatsiya va regressiya tahlili metodlari qo'llanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning birinchi metodi – tizimli iqtisodiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi tarkibida sezilarli sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. 2023-2024-yillar tahliliga ko'ra, eksport tarkibida tayyor mahsulotlar, xususan, to'qimachilik mahsulotlari, mis buyumlari hamda kimyo sanoati mahsulotlarining ulushi 45 foizdan oshgan. Biroq, mantiqiy-qiyosiy tahlil natijalari eksport hajmining o'sish sur'ati (taxminan 23-25 foiz) import hajmining o'sish sur'atidan ortda qolayotganini ko'rsatmoqda.

Misol tariqasida, eksportyor korxonalar tomonidan Inkoterms 2020 qoidalaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilinganda, tadbirkorlarning aksariyati hanuzgacha FCA yoki EXW shartlari asosida faoliyat yuritishni afzal ko'rayotgani aniqlandi. Bu holat mahsulotni yakuniy iste'molchigacha yetkazish jarayonida yaratiladigan qo'shilgan qiymatning logistika bilan bog'liq qismi asosan xorijiy kompaniyalar ixtiyorida qolishiga olib kelmoqda.

Tizimli tahlil natijalariga ko'ra, agar eksport operatsiyalari CIF yoki DAP shartlari asosida amalga oshirilsa, mamlakatga tushadigan valyuta tushumlari hajmini qo'shimcha ravishda 8-12 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Tashqi savdo aylanmasi
yanvar-noyabr, mln AQSH dollari



1-rasm. Tashqi savdo aylanmasi 2025-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra (mln AQSH dollari)¹

TSAda eksport hajmi 30 894,8 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2024-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 26,2 foizga oshdi, import hajmi esa 41 885,4 mln AQSH dollariga yetib, 18,7 foiz o'sish qayd etildi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 10 990,6 mln AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

Ikkinchi metod – risk-orientirlangan audit usulini qo'llash orqali import operatsiyalaridagi asosiy xavf-xatarlar aniqlandi. Tahlillar natijalariga ko'ra, import qilinayotgan texnologik uskunalar uchun qo'llaniladigan bojxona imtiyozlari auditi davomida holatlarning qariyb 15 foizida TIF TN kodlarining noto'g'ri tanlanishi oqibatida byudjetga to'lovlar kam hisoblanganligi yoki asossiz imtiyozlar qo'llanilganligi ma'lum bo'ldi.

Statistik ma'lumotlarga asoslanib, 2023-yilda o'tkazilgan audit tekshiruvlari natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- valyuta tushumining kechikishi (debitorlik qarzi) umumiy eksport hajmining 3,2 foizini tashkil etgan bo'lib, bu holat asosan xalqaro kontraktlarda "to'lov kafolati" mexanizmlarining yetarli darajada qo'llanilmaganligi bilan izohlanadi;

¹ stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi (2025- yil yanvar - noyabr), 22/12/2025.



• bojxona qiymatini aniqlashdagi xatoliklar tufayli undirilgan qo'shimcha to'lovlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 18 foizga oshgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eksport va import operatsiyalarini takomillashtirishda faqatgina bojxona to'lovlarini tartibga solish yetarli emas. Mantiqiy mushohada shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston Respublikasining dengiz yo'llaridan uzoqda joylashganligi sababli eksport mahsulotlari tannarxida transport xarajatlari 20-25 foizgacha yetmoqda. Taqqoslash uchun, rivojlangan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 8-10 foizdan oshmaydi. Demak, audit jarayonida logistika marshrutlarini optimallashtirish birinchi darajali vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda "E-kontrakt" tizimi bilan buxgalteriya dasturlarining (1C, SAP) yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi ma'lumotlarning takrorlanishiga va xatoliklarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, eksportga yo'naltirilgan subsidiyalar hajmi 1 foizga oshirilsa, tayyor mahsulotlar eksporti o'rtacha 0,8 foizga ko'payadi. Bu esa davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Muhokamalar yakunida eksport-import auditini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

• "yashil yo'lak" tizimi doirasida auditni yuklarni bojxonada ko'zdan kechirish bosqichida emas, balki yuklar yetib kelgandan so'ng (post-clearance audit) o'tkazish amaliyotini kengaytirish, bu tashqi savdo aylanmasi tezligini 1,5 barobarga oshirish imkonini beradi;

• muddati o'tgan debitorlik qarzlari uchun jarimalar tizimini korxonaning risk darajasidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan holda qo'llash;

• tizimli yondashuv va risk-audit usullarini joriy etish orqali korxonalarining tashqi savdo operatsiyalaridagi moliyaviy yo'qotishlarini 20-25 foizgacha qisqartirish imkoniyatini yaratish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eksport va import operatsiyalarini takomillashtirish, ularning tahlili hamda auditini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish bo'yicha olib borilgan ushbu tadqiqot yakunlari mamlakat iqtisodiyoti uchun bir qator muhim strategik xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. O'tkazilgan tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikamiz tashqi savdo aylanmasida miqdoriy o'sish kuzatilayotgan bo'lsa-da, sifat jihatidan tarkibiy nomutanosibliklar hanzu saqlanib qolmoqda. Xususan, eksportda tayyor mahsulotlar ulushini oshirish hamda importda yuqori texnologik uskunalar salmog'ini optimallashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan risk-orientlangan audit metodikasi shuni isbotladiki, korxonalarda tashqi iqtisodiy faoliyat ustidan nazoratning sustligi, valyuta tushumlarining kechikishi hamda bojxona rasmiylashtiruvdagi texnik xatoliklar moliyaviy barqarorlikka sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, logistika xarajatlarining eksport mahsuloti tannarxidagi yuqori ulushi mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini cheklab qo'yayotgan asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va eksport-import operatsiyalari samaradorligini oshirish maqsadida bir qator kompleks takliflar ilgari suriladi.

Birinchiidan, korxonalarda "Smart Audit" va "Digital Compliance" tizimlarini joriy etish orqali barcha tashqi savdo shartnomalarining ijrosini avtomatlashtirilgan tarzda monitoring qilish zarur. Ushbu tizimlar sun'iy intellekt algoritmlari yordamida muddati o'tgan debitorlik qarzlari hamda TIF TN kodlarini tanlashdagi potensial xavf-xatarlarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchiidan, eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda faqat soliq imtiyozlari bilan cheklanib qolmasdan, xalqaro logistika auditini standartlashtirish hamda Inkoterm-2020 qoidalarining samarali kombinatsiyalaridan (jumladan, CIF va DAP shartlariga o'tish orqali) foydalanish bo'yicha metodik bazani shakllantirish lozim. Mazkur chora-tadbirlar yuk tashish zanjiridagi ortiqcha xarajatlarni kamida 15-20 foizga qisqartirishga xizmat qiladi.

Uchinchiidan, bojxona ma'murchiligini takomillashtirish doirasida post-bojxona auditini mexanizmini kengaytirish va tovarlarni chegarada ko'zdan kechirish darajasini minimallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu ilmiy asoslangan takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi respublikamiz tashqi savdo balansining barqarorlashuviga, valyuta tushumlarining intizomli o'sishiga hamda mahalliy mahsulotlarning global qiymat zanjiridagi o'rnini mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-268-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6323768?ONDATE=13.01.2023%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



3. International economics: theory & policy / P. R. Krugman, M. Obstfeld, M. J. Melitz. 9th ed. Boston: Pearson Addison-Wesley, 2012. 714 p.
4. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach / A.A. Arens, R.J. Elder, M. S. Beasley, C. E. Hogan. 16th ed. Harlow: Pearson Education Limited, 2017. 880 p.
5. Портер, М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов; пер. с англ. 4-е изд. М.: Альпина Паблишер, 2011. 453 с. Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili: o'quv qo'llanma / G' A. Ibragimov, U.K. Yakubov. T.: Iqtisod-moliya, 2014. 164 b.
6. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi (2025- yil yanvar - noyabr), 22/12/2025.
7. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
8. stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika Qo'mitasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>